



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No5



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 83 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-mayda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

- Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

“Zavur kollektor suvlarining kimyoviy tarkibi tahlili va ularni tozalash zarurati (Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida)” Kungiratbay Sharipov, Ma‘ruf Nurmanov	20
Forming demand and stimulating sales in Uzbekistan..... Musayeva Shoirazimovna	26
Членство в ВТО как драйвер развития: взгляд Узбекистана через призму опыта Вьетнама и Казахстана..... Ж.Я.Нуриллаев	30
Mamlakatimizda tizimli ahamiyatga molik banklarni aniqlash tartibi va ularning bank tizimi moliyaviy barqarorligiga ta’siri tahlili..... Xolmamatov Farhodjon Kubaevich	37
O‘zbekiston respublikasida aholi bandligini ta’minlashdagi dolzarb masalalar Ibragimov Elmurod Gulboynor o‘g‘li	44
O‘zbekiston respublikasida elektr energiyasi ta’minoti hajmini yalpi ichki mahsulot hajmiga ta’sirini ekonometrik tahlil qilish..... Fayziyev Rabim Alikulovich	48
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining xizmat turlarini takomillashtirish amaliyoti Umurzoqova Adiba Ochilovna	60
Qishloq xo‘jaligi kooperativi boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning o‘ziga xos xususiyatlari Abduraxmanov Ramazon Abdullayevich	67
O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmini prognozlashda ekonometrik modellar (yillik) Qodirov Farxod Amirovich, Bo‘ribaeva Qundiz Muratbaevna	72
Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi tizimini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari..... Mahamatova Maftuna	77



OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI XAVFSIZLIGI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHALARI

Mahamatova Maftuna

Renessans ta'lim universiteti
"Iqtisodiyot" kafedrası assistenti
maxamatova1998@gmail.com
ORCID 0009-0001-9518-3510

Annotatsiya: Mazkur maqolada oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlashning nazariy asoslari, amaliy yechimlari hamda O'zbekistondagi amaldagi holat tahlil qilingan. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan islohotlar, qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, mavjud muammolar va xalqaro tajriba ilmiy asosda tahlil etilgan. Sohaning xavfsizligini ta'minlashda iqtisodiy, huquqiy, institutsional va ta'limiy yondashuvlarni uyg'unlashtirish zarurligi asoslab berilgan. Tadqiqot natijasida oziq-ovqat xavfsizligini kuchaytirishga qaratilgan aniq va amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat xavfsizligi, xavf tahlili, sifat nazorati, HACCP, oziq-ovqat siyosati, laboratoriya tekshiruvi, normativ-huquqiy baza, Codex Alimentarius, mahsulot sertifikatlash, iqtisodiy tahlil.

Abstract: This article analyzes the theoretical foundations, practical solutions for ensuring the safety of food products and the current situation in Uzbekistan. Reforms carried out in order to ensure the safety of food products, adopted regulatory legal acts, problems in the field and international experiments were scientifically substantiated and analyzed. The need to harmonize economic, legal, institutional and educational approaches to ensuring the security of the industry is justified. As a result of the study, specific practical proposals aimed at enhancing food safety have been worked out.

Key words: food safety, risk analysis, quality control, HACCP, food policy, laboratory testing, regulatory framework, Codex Alimentarius, product certification, economic analysis.

Аннотация: В данной статье проанализированы теоретические основы обеспечения безопасности пищевых продуктов, практические решения и текущая ситуация в Узбекистане. Научно обоснованно проанализированы реформы, проводимые в целях обеспечения продовольственной безопасности, принятые нормативные правовые акты, проблемы в отрасли и международный опыт. Обоснована необходимость гармонизации экономического, правового, институционального и образовательного подходов к обеспечению безопасности отрасли. В результате исследования были разработаны конкретные практические предложения, направленные на повышение безопасности пищевых продуктов.

Ключевые слова: безопасность пищевых продуктов, анализ рисков, контроль качества, HACCP, продовольственная политика, лабораторные испытания, нормативно-правовая база, кодекс Алиментария, сертификация продукции, экономический анализ.

KIRISH

Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi inson hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishda markaziy o'rin tutadigan strategik sohalardan biridir. Bugungi kunda jahon miqyosida aholining barqaror oziq-ovqat ta'minotiga bo'lgan ehtiyoji tobora ortib bormoqda. Bir tomondan aholi sonining o'sishi, ikkinchi tomondan esa urbanizatsiya, iqlim o'zgarishi, oziq-ovqat zanjirining globallashuvi, transport va logistika tizimlarining kengayishi ushbu masalaga bo'lgan talab va xavf darajasini keskin oshirmoqda. Shunday sharoitda oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligini ta'minlash nafaqat iqtisodiy yoki gigiyenik vazifa, balki davlatning barqaror rivojlanishi va milliy xavfsizligi uchun ham muhim strategik maqsadga aylanmoqda.

Oziq-ovqat xavfsizligi deganda inson salomatligiga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan biologik, kimyoviy, fizik va boshqa turdagi xavflardan holi, ishonchli va sanitar-gigiyenik talablarga javob beradigan mahsulotlarni ishlab chiqarish, saqlash, tashish va iste'mol qilish jarayonidagi kafolatlangan tizim tushuniladi. Bu jarayonda oziq-ovqat zanjirining har bir bo'g'ini – xom ashyoni yetishtirishdan tortib, tayyor mahsulot iste'molchiga yetib borgunigacha – kompleks va uzviy nazoratni talab etadi. Biror bosqichdagi kamchilik butun tizimning



ishonchililigiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun xavfsizlikni ta'minlash tizimli, strategik va ilmiy yondashuvlarni talab etadi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) hamda BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) hisobotlarida qayd etilishicha, har yili dunyoda taxminan 600 million kishi xavfli oziq-ovqat mahsulotlari sababli turli infeksiyalar va zaharlanishlarga duch keladi. Bu holatlardan qariyb 420 ming kishi halok bo'ladi. Eng achinarli tomoni – mazkur holatlar ko'pincha oldini olish mumkin bo'lgan omillar sababli yuzaga keladi. Demak, muammo yechimi mavjud, faqat uni tizimli ravishda amalga oshirish talab etiladi.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda oziq-ovqat xavfsizligiga bo'lgan davlat e'tibori ortib bormoqda. Bu sohaga oid normativ-huquqiy baza yangilanmoqda, sifat nazoratini kuchaytirish bo'yicha yangi tashkilotlar faoliyat boshlamoqda, xalqaro standartlar asosida sertifikatlash va laboratoriya infratuzilmasi yaratilmoqda. Ayni paytda bozordagi turli sifatsiz mahsulotlar, sanitariya qoidalariga to'liq rioya etilmasligi, ayrim ishlab chiqaruvchilarda zamonaviy nazorat tizimlarining joriy etilmagani amalda hali yetarli samaraga erishilmaganini ko'rsatmoqda.

Globalashuv va oziq-ovqat ta'minot zanjirining chegarasiz shaklga kelishi, ayniqsa transchegaraviy mahsulotlar oqimida xavfsizlikni ta'minlashga oid yangi talab va murakkabliklarni yuzaga keltirmoqda. Bu esa har bir davlatdan nafaqat ichki nazoratni kuchaytirishni, balki xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, standartlashtirish va umume'tirof etilgan baholash tizimlarini joriy etishni talab qilmoqda. Masalan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida "fermerdan stolgacha" tamoyili asosida ishlaydigan oziq-ovqat nazorati tizimi yaratilgan bo'lib, bu tajriba ko'plab davlatlar uchun o'rnak sifatida qaralmoqda.

O'zbekistonda ham mazkur masala so'nggi yillarda ustuvor yo'nalish sifatida e'tirof etilmoqda. Mamlakatda aholi sonining o'sishi, shaharlashish jarayoni, ichki bozorda talabning kengayishi va eksport imkoniyatlarining oshishi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashni yanada dolzarb qilib qo'yimoqda. Aholini sifatli va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash maqsadida oziq-ovqat xom ashyo bazasini kengaytirish va organik mahsulotlar hajmini bosqichma-bosqich oshirish dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish doirasida: 2022-yilda Davlat investitsiya dasturi doirasida umumiy qiymati 440 mln AQSh dollari bo'lgan 50 ta yirik loyiha amalga oshirildi; 2026-yilga borib oziq-ovqat mahsulotlari hajmini 7,4 mln tonnaga, qayta ishlash darajasini sut bo'yicha 32 foizga, go'sht bo'yicha 25 foizga, meva-sabzavot bo'yicha esa 28 foizga yetkazish maqsad qilingan [1].

So'nggi yillarda respublikada oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish, sohaga investitsiya mablag'larini jalb qilish va eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 6,1 milliard AQSh dollaridan, ularning yillik eksporti esa 510 million AQSh dollaridan oshdi. Shuningdek, so'nggi uch yilda import o'rnini bosuvchi 75 turdagi, umumiy qiymati 289,9 million AQSh dollari bo'lgan oziq-ovqat sanoati mahsulotlari ishlab chiqarilishi ta'minlandi va natijada import hajmi 7,4 foizga kamaydi. Respublika sanoatida oziq-ovqat sanoatining ulushi 14 foizdan 16,6 foizga oshdi. Keyingi besh yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish faoliyatini qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etish, mavjud quvvatlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, yangi loyihalarga investitsiyalarni jalb qilish, bozorda raqobatbardosh mahsulotlar turini yanada kengaytirish, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish hisobiga yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini 1,5 baravarga, eksport ko'rsatkichlarini esa 2 baravarga oshirish rejalashtirilgan [2].

Shu bilan birga, amalda qator muammolar saqlanib qolmoqda. Xususan, oziq-ovqat ishlab chiqaruvchilar orasida xavfsizlik standartlari (ayniqsa HACCP, ISO 22000) to'liq joriy etilmagan; laboratoriya va monitoring tizimlari texnik jihatdan yetarlicha jihozlanmagan; raqamli nazorat vositalaridan kam foydalanilmoqda; qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda pestitsid va veterinar dori vositalaridan noto'g'ri foydalanish holatlari kuzatilmoqda; iste'molchilarning oziq-ovqat xavfsizligiga oid bilim va madaniyati yetarli darajada emas.

Demak, mavzuning dolzarbligi nafaqat global muammolar, balki O'zbekistonning ichki ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, inson kapitalini rivojlantirish va eksport salohiyatini oshirish nuqtayi nazaridan ham yuqori ahamiyatga ega. Mazkur masalada ilmiy yondashuv, huquqiy asoslar, institutsional islohotlar va amaliyotga mos tizimli mexanizmlarni ishlab chiqish mamlakatning barqaror rivojlanishi uchun zarur shart hisoblanadi.

Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligining nazariy asoslarini chuqur o'rganish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlash masalasi bo'yicha iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ushbu sohaning iqtisodiy mexanizmlari, bozor sharoitidagi ta'sir omillari, huquqiy baza va nazorat tizimlarining samaradorligi nuqtayi nazaridan o'rganilgan. Biroq mavjud tadqiqotlarni tahlil qilar ekanmiz, ushbu masalaga yondashuvlarda sektorlararo muvofiqlashtirilmaganlik, metodologik yondashuvlarning turiligi va amaliyot bilan yetarlicha bog'lanmaganlik holatlari mavjudligini ko'rish mumkin.



A. Ahmedov o'zining "Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda huquqiy mexanizmlar" nomli monografiyasida asosiy e'tiborni normativ-huquqiy asoslarni takomillashtirishga qaratadi va mavjud qonun hujjatlaridagi boshqa sohalar bilan uyg'unlashmagan nuqsonlarni ko'rsatadi [3]. Biroq u amaliyotdagi institutsional vazifalar taqsimoti, nazorat organlari o'rtasidagi hamkorlikning real samaradorligi kabi iqtisodiy jihatlarni yetarlicha yoritmaydi.

Shu bilan birga, T. Yunusova o'z tadqiqotida O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi asosiy muammolarni ifodalarkan, bozorda sifatsiz mahsulotlarning ko'pligi, sertifikatlash tizimining samarasizligi va iste'molchilarning xabardorlik darajasining pastligini qayd etgan [4]. Uning tahlilida xavfsizlik muammosi asosan sanitar va huquqiy nuqtayi nazardan yoritilgan bo'lib, iqtisodiy samaradorlik va bozor mexanizmlari yetarlicha ko'rsatilmagan.

M. Ibragimov esa oziq-ovqat xavfsizligini qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishdagi samaradorlik bilan bog'laydi. Uning ta'kidlashicha, mahsulot xavfsizligi dehqon va fermer xo'jaliklarining texnologik jarayonlarga rioya qilish darajasiga chambarchas bog'liq bo'lib, buning uchun rag'batlantiruvchi iqtisodiy mexanizmlar, soliq imtiyozlari va subsidiyalar tizimini ishlab chiqish zarur [5]. Biroq bu yondashuvda eng katta xavf – ishlab chiqaruvchilardagi nazoratsizlik va davlat tomonidan yetarlicha tekshiruv mexanizmlarining yo'qligi e'tibordan chetda qolgan.

Shuningdek, J. Qurbonov va D. Hamidov tomonidan olib borilgan tadqiqotlar oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan integratsiyasini muhokama qiladi. Ular raqamli texnologiyalar, ayniqsa QR-kodli mahsulot kuzatuv tizimlari xavflarni kamaytirishda muhim rol o'ynaydi, deb hisoblaydi [6]. Biroq bu yondashuvlarda inson kapitali, ishlab chiqaruvchi va nazoratchi kadrlarning tayyorgarlik darajasi va bilim saviyasi yetarlicha baholanmagan.

Xalqaro miqyosda esa FAO va WHO tomonidan ishlab chiqilgan Codex Alimentarius standartlari turli mamlakatlarda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda asosiy me'yoriy baza sifatida xizmat qilmoqda. Ushbu standartlar, jumladan, HACCP tizimini amalga tatbiq etishni tavsiya etadi [7, 8]. Biroq bu standartlarni milliy amaliyotga moslashtirishda iqtisodiy, huquqiy va infratuzilmaviy to'siqlar mavjud bo'lib, ular alohida ilmiy tahlilni talab qiladi.

Mahalliy va xalqaro darajada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha iqtisodchi va sohaviy olimlar tomonidan turli yondashuvlar ishlab chiqilgan bo'lib, ularning ba'zilarida nazariy asoslar mukammal, boshqalarida esa amaliy bog'liqlik yetarli emas.

R. Hoshimov o'z tadqiqotida oziq-ovqat xavfsizligini mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi bilan bevosita bog'laydi. Uning fikricha, mahsulot xavfsizligiga e'tibor berilmasa, ichki bozorda raqobat muhitini izdan chiqaradi, sifatsiz mahsulotlarning tarqalishi esa iste'molchilarning sog'lig'iga va ishonchiga jiddiy tahdid soladi. U bu muammoni hal etish uchun davlat xaridlari va subsidiya siyosatini xavfsiz mahsulot ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirishga yo'naltirishni taklif qiladi [9]. Biroq bu mexanizmlarning moliyaviy ta'siri va amaldagi nazorat tizimlari bilan o'zaro bog'liqligi tadqiqotda yetarli darajada asoslanmagan.

Xalqaro tadqiqotchi P. Xobbs esa oziq-ovqat xavfsizligi va bozor shaffofligini o'zaro bog'liq jarayon deb hisoblaydi. U o'z tadqiqotlarida ta'kidlaydiki, oziq-ovqat zanjirida axborot asimmetriyasi – ya'ni ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtasidagi ma'lumotlar tafovuti – xavfli mahsulotlarning tarqalishiga olib keluvchi asosiy omillardan biridir. P. Xobbs yuqori darajada faol bozor subyektlari ishtirokida sifatga asoslangan raqobatni rag'batlantirish orqali xavfsizlikni ta'minlashni taklif etadi [10]. Bu nazariya O'zbekiston sharoitida ham dolzarb, ammo uni amalda joriy etish uchun davlat va xususiy sektor o'rtasida o'zaro ishonch, ochiq axborot almashinuvi va qonun bilan kafolatlangan shaffoflik zarur.

J. Braun va A. Roberts tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa oziq-ovqat xavfsizligiga oid siyosatlarining qishloq xo'jaligidagi kichik va o'rta ishlab chiqaruvchilarga ta'siri o'rganilgan. Ularning fikricha, xavfsizlikka qaratilgan qat'iy me'yorlar kichik fermerlar uchun bozordan chiqib ketish xavfini oshiradi [11]. Demak, xavfsizlik siyosati ijtimoiy barqarorlik nuqtayi nazaridan ham ishlab chiqilishi lozim. Bu yondashuv O'zbekistondagi kichik fermer xo'jaliklari ko'pligi sharoitida ayniqsa dolzarbdir.

M. Xoliqov esa mazkur masalani "iqtisodiy yo'qotishlar nuqtayi nazaridan" tahlil qilib, zararli mahsulotlar oqibatida sog'liqni saqlash tizimiga tushayotgan ortiqcha xarajatlar, mehnat qobiliyatining pasayishi va ishlab chiqarish samaradorligining kamayishi mamlakat YalMiga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatishini asoslaydi [12]. U, shuningdek, xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan investitsiyalar uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo'li ekanini iqtisodiy modellar orqali ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, mavjud adabiyotlardagi yondashuvlar oziq-ovqat xavfsizligi masalasini turli nuqtayi nazardan yoritadi. Ammo ularni umumlashtirgan holda strategik, kompleks va amaliyotga yaqin ilmiy yondashuvlarga ehtiyoj mavjud. Hozirgi holatda iqtisodiy, huquqiy va texnologik mexanizmlarni uyg'unlashtirgan, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi o'zaro mas'uliyatni aniq belgilab beruvchi nazariy modellar ishlab chiqish dolzarb vazifadir.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi tizimini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari qiyosiy tahlil, statistik ma'lumotlarni o'rganish, iqtisodiy taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya usullari asosida o'rganilgan.

Tahlil va natijalar

Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlash bugungi global muammolar fonida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. XXI asrda bu masala faqat sanitariya yoki gigiyena muammosi emas, balki milliy xavfsizlik, iqtisodiy barqarorlik va aholining hayot sifati bilan bevosita bog'liq strategik vazifaga aylangan. Bu dolzarblik nafaqat rivojlanayotgan mamlakatlarda, balki rivojlangan davlatlarda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Jahon miqyosida har yili milliardlab insonlar oziq-ovqat bilan bog'liq xavflar – biologik (bakteriyalar, viruslar, parazitlar), kimyoviy (pestitsidlar, mikotoksinlar), fizik (metall, shisha, plastmassa qoldiqlari) va allergik omillar tufayli salomatligiga putur yetkazmoqda.

O'zbekistonda 2020–2024-yillar davomida oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlash bo'yicha qator islohotlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, ushbu sohada hali ham yechimini kutayotgan dolzarb muammolar mavjud. Quyidagi jadvallar orqali mazkur davrdagi asosiy ko'rsatkichlar tahlil qilinadi (1-jadval).

1-jadval. O'zbekistonda 2020–2024-yillarda oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligiga oid asosiy ko'rsatkichlar.

Ko'rsatkichlar	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil
Oziq-ovqat mahsulotlari bilan bog'liq kasallanish holatlari soni (mingta)	12,5	11,8	10,6	9,9	9,2
Oziq-ovqat mahsulotlarining laboratoriya tekshiruvlari soni (mingta)	45,0	47,5	50,0	52,5	55,0
Xavfli mahsulotlar aniqlangan holatlar soni (mingta)	3,2	2,9	2,5	2,2	1,9
Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligiga oid qonunbuzarlik holatlari soni (mingta)	1,5	1,3	1,1	0,9	0,7

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi va O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi ma'mumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2020–2024-yillar davomida oziq-ovqat mahsulotlari bilan bog'liq kasallanish holatlari hamda xavfli mahsulotlar aniqlangan holatlar soni izchil kamaygan. Bu tendensiya nazorat va laboratoriya tekshiruvlari sonining ortishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, qonunbuzarlik holatlarining kamaygani ham sohaga oid amalga oshirilgan islohotlarning samaradorligini yaqqol namoyon etadi (2-jadval).

2-jadval. O'zbekistonda 2020–2024-yillarda oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligiga oid qonunchilik islohotlari.

Yillar	Qabul qilingan hujjatlar va islohotlar
2020	«Oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligi to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi.
2021	Oziq-ovqat mahsulotlarini sertifikatlashtirish tizimi takomillashtirildi.
2022	Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligiga oid davlat nazorati kuchaytirildi.
2023	Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi sohasidagi davlat organlari o'rtasida hamkorlik mexanizmi yaratildi.
2024	Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligiga oid milliy strategiya qabul qilindi.

Manba: Normativ-huquqiy hujjatlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, 2020–2024-yillar davomida qabul qilingan qonunchilik hujjatlari va amalga oshirilgan islohotlar oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etgan. Xususan, 2020-yilda qabul qilingan Qonun hamda keyingi yillardagi islohotlar sohaga oid davlat nazoratini kuchaytirishga va mahsulotlar sifatiga bo'lgan talablarni oshirishga xizmat qilgan (3-jadval).



3-jadval. O'zbekistonda 2020–2024-yillarda oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi sohasidagi xalqaro hamkorlik loyihalari.

Yillar	Loyiha nomi	Hamkor tashkilotlar
2020	Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi bo'yicha milliy strategiya	FAO, WHO
2021	Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi laboratoriyalarini yangilash	FAO, UNDP
2022	Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi bo'yicha kadrlar tayyorlash	FAO, USAID
2023	Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish	FAO, WHO
2024	Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi bo'yicha milliy monitoring tizimini yaratish	FAO, UNDP, USAID

Manba: FAO, WHO, UNDP, USAID rasmiy ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilgan loyihalar O'zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynagan. Ushbu loyihalar doirasida laboratoriyalar yangilangan, kadrlar tayyorlangan hamda qonunchilikni takomillashtirish imkoniyati kengaygan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlash masalasi jahon hamjamiyati uchun strategik ahamiyatga ega muammolardan biriga aylangan. Bu masala nafaqat inson salomatligi, balki ijtimoiy barqarorlik, iqtisodiy o'sish va milliy xavfsizlik bilan chambarchas bog'liq. Bugungi kunda oziq-ovqat xavfsizligiga e'tibor sanitariya va gigiyena talablariga rioya qilish bilan cheklanmay, balki ishlab chiqarish, transport, saqlash, savdo va iste'mol jarayonlarining har bir bosqichida tizimli yondashuvni talab etmoqda.

O'zbekistonda 2020–2024-yillar davomida oziq-ovqat xavfsizligiga oid qator ijobiy islohotlar amalga oshirildi. Maxsus qonunlar qabul qilindi, laboratoriya tizimlari yangilandi, xalqaro standartlar (jumladan, Codex Alimentarius) asosida milliy me'yorlar ishlab chiqildi va sohaga raqamli texnologiyalar joriy etila boshlandi. Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda qator dastur va loyihalar amalga oshirildi, mutaxassislar tayyorlandi. Davlat organlari, nazorat tashkilotlari va xususiy sektor o'rtasida hamkorlik mexanizmi shakllantirildi.

Shu bilan birga, amaliy tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, mavjud yutuqlarga qaramay, sohada hal etilishi lozim bo'lgan bir qator muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan:

Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlashda ishlab chiqaruvchi korxonalarda zamonaviy standartlarni to'liq joriy etishda qiyinchiliklar mavjud.

Kichik fermer xo'jaliklari va xususiy sektor subyektlari xavfsizlik talablarini bajarishga moddiy hamda axborot resurslari yetishmasligi sababli moslasha olmayapti.

Iste'molchilarning oziq-ovqat xavfsizligiga oid bilim darajasi past, mahsulot haqidagi axborotlar esa shaffof emas.

Ayrim hollarda joriy etilayotgan xavfsizlik mexanizmlari kichik ishlab chiqaruvchilar uchun ortiqcha byurokratik yuklamaga aylanmoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari, ayniqsa kichik va o'rta biznes vakillari xavfsizlik talablarini to'liq anglab yetmagan. Tekshiruv va laboratoriya infratuzilmasi ayrim hududlarda yetarli darajada emas. Holbuki, xavfsiz oziq-ovqat – sog'lom inson kapitali, barqaror jamiyat va uzoq muddatli iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omilidir.

Tadqiqot natijalariga ko'ra quyidagi asosiy xulosalar va amaliy takliflar ilgari suriladi:

Kompleks yondashuv zarur – xavfsizlik masalasiga faqat ishlab chiqarish yoki sanitariya nuqtayi nazaridan emas, balki iqtisodiy, ta'limiy, huquqiy va raqamlashtirish yondashuvlarini uyg'unlashtirgan holda yondashish lozim.

Ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash – kichik korxonalarni imtiyozli moliyalashtirish, zamonaviy uskunalar bilan ta'minlash, maslahat xizmatlarini yo'lga qo'yish zarur.

Targ'ibot va ta'lim – oziq-ovqat xavfsizligi madaniyatini shakllantirish uchun aholiga keng ko'lamli axborot kampaniyalari va o'quv kurslarini joriy etish muhim.

Nazorat tizimini raqamlashtirish – ishlab chiqarishdan iste'molchigacha bo'lgan zanjirni raqamli kuzatish (track & trace), QR-kodli identifikatsiya kabi vositalarni tatbiq etish kerak.

Kadrlar salohiyatini oshirish – laboratoriya mutaxassislari, inspektorlar va ishlab chiqaruvchilar uchun doimiy malaka oshirish tizimini shakllantirish zarur.

Eksport mahsulotlariga alohida e'tibor – eksportga mo'ljallangan mahsulotlarni xalqaro talablar asosida yetishtirish, sertifikatlash va auditlarga tayyorlash tizimini kengaytirish talab etiladi.

Hududiy yondashuvlar – oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda qishloq va shahar hududlaridagi infratuzilmaviy farqlar hisobga olinishi lozim.



Xulosa qilib aytganda, oziq-ovqat xavfsizligi nafaqat sog'liqni muhofaza qilish, balki mamlakat iqtisodiy salohiyati, eksport imkoniyatlari va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Nazariy tadqiqotlar va amaliy choralarni uzviy ravishda uyg'unlashtirish orqali O'zbekistonda xavfsiz, sifatli va raqobatbardosh oziq-ovqat mahsulotlari tizimini shakllantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.02.2024 yildagi "Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-36-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/6802687>
3. Аҳмедов А.А. (2020). Озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашда ҳуқуқий механизмлар. – Тошкент: "Юридик нашр".
4. Юнусова Т. (2019). Ўзбекистонда озиқ-овқат хавфсизлиги: муаммолар ва ечимлар. – Тошкент: Иқтисодиёт фанлари журнали, №4.
5. Ибрагимов М. (2021). "Қишлоқ хўжалигида хавфсиз озиқ-овқат маҳсулотлари ишлаб чиқаришнинг иқтисодий асослари", Аграр фанлар журнали, №2.
6. Қурбонов Ж., Ҳамидов Д. (2022). "Озиқ-овқат маҳсулотларининг хавфсизлигини таъминлашда рақамли назорат воситаларининг аҳамияти", Иқтисодиёт ва инновациялар, №3.
7. FAO/WHO (2020). Codex Alimentarius: Food Hygiene – Basic Texts. Rome: FAO.
8. WHO (2021). Food Safety Fact Sheet. Retrieved from: <https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/food-safety>
9. Ҳошимов Р. (2020). "Озиқ-овқат хавфсизлиги ва бозор механизми: Ўзбекистон шароитида ёндашувлар", Иқтисодиёт ва бошқарув журнали, №2.
10. Hobbs, J.E. (2010). "Information Asymmetry and Food Safety Regulations", Journal of Agricultural Economics, Vol. 61(2).
11. Brown, J., & Roberts, A. (2013). "Food Safety Standards and Smallholders: A Global Perspective", World Development, Vol. 45.
12. Холиқов М. (2021). "Озиқ-овқат хавфсизлиги ва иқтисодий самарадорлик: таҳлил ва баҳолаш усуллари", Ўзбекистон иқтисодий ахборотлар маркази материаллари, №3.
13. Azlarova M. Impact of technology-supported marketing strategies on food security and provision: Evidence from Uzbekistan's confectionery industry //Proceedings of the 6th International Conference on Future Networks & Distributed Systems. – 2022. – С. 39-45.
14. Азларова, Мунира. "Истеъмол бозорини озиқ-овқат товарлари билан тўлдиришда маркетинг стратегияларидан фойдаланишнинг услубий жиҳатлари." Iqtisodiyot va ta'lim 25.1 (2024): 160-170.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
